

Turonbankning ishlab chiqarish IV-seminari

“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti B-bino 109-auditoriyasida “Iqtisodiyot” fakultetida tahsil olayotgan “TURONBANK” ATB stependiat talabalari va professor o‘qituvchilari uchun 19.10.2024 yilda “TURONBANK” ATB O‘quv markazi direktori Salamov Islom Tashkazakovich bilan "Turonbank ATBda optimizatsiyalash jarayonlari" mavzusida 2024-2025 o‘quv yili uchun rejalashtirilgan IV-seminar tashkil qilindi.



Islom Tashkazakovich tomonidan hozirgi kunda “Turonbank” ATB tizimida borayotgan optimallashtirish ishlari bosh ofis va filiallarning funksiyalarini avtomatlashtirish va takomillashtirish ishlari, bir-birini takrorlovchi funksiyalarni qisqartirish orqali harajatlarni boshqa yo‘nalishlarni rivojlantirishga qaratish ishlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berdi. Ma‘ruza yuzasidan talaba yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.



“Iqtisodiyot” fakulteti dekani o‘rinbosari

U.Xoliyorov ma’lumoti

Universitet matbuot xizmati